



HAKAMLIK SUDLARINING HUQUQIY TABIATI VA ZAMONAVIY NIZOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI

Mamadaliyev Akrombek Ikrom o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish faoliyati talabasi

Annotatsiya

Hozirgi kunda davlatni demokratik jihatdan yuksaltirish va qonunchilikni takomillashtirish sharoitida sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar, avvalo, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan. Mazkur jarayonda hakamlik (arbitraj) sudlari institutining o'rni tobora ortib bormoqda hamda u zamonaviy huquqiy tizimda muqobil nizolarni hal etish mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Ushbu tezisda hakamlik sudlarining huquqiy tabiati, ularning xalqaro va milliy huquqiy manbalardagi o'rni, shuningdek, zamonaviy huquqiy nizolarni hal etishdagi samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Shu bilan birga, amaliyotda kuzatilayotgan muammolar, hakamlik sudlarining huquqiy tabiati va zamonaviy nizolarni hal etishdagi o'rni, xususan sudyalalar bilan bog'liq holatlar yoritilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: hakamlik sudi, fuqarolik prosessi, huquqiy tabiati, sudga tegishlilik, qonun, kodeks, zamonaviy nizo.

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА ТРЕТЕЙСКИХ СУДОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗРЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ СПОРОВ

Аннотация

В настоящее время реформы, проводимые в судебно-правовой системе в условиях демократического развития государства и совершенствования законодательства, прежде всего направлены на всестороннюю защиту прав, свобод и законных интересов человека. В этом процессе роль института



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

арбитражных судов постепенно возрастает, и он формируется как механизм альтернативного разрешения споров в современной правовой системе.

В данном тезисе анализируются правовая природа арбитражных судов, их место в международных и национальных правовых источниках, а также эффективность в урегулировании современных правовых споров с научно-теоретической и практической точки зрения. Кроме того, рассматриваются проблемы, наблюдаемые в правоприменительной практике, правовая природа арбитражных судов и их роль в разрешении современных споров, в частности вопросы, связанные с судьями, а также разрабатываются предложения и рекомендации по устранению существующих недостатков.

Ключевые слова: арбитражный суд, гражданский процесс, правовая природа, подведомственность суду, закон, кодекс, современный спор.

THE LEGAL NATURE OF ARBITRATION COURTS AND THEIR ROLE IN RESOLVING CONTEMPORARY DISPUTES

Annotation

Currently, the reforms being carried out in the judicial and legal system within the framework of democratic advancement and legislative improvement are primarily aimed at ensuring comprehensive protection of human rights, freedoms, and legal interests. In this process, the role of arbitration courts is steadily increasing, and they are emerging as a mechanism for alternative dispute resolution within modern legal systems. This thesis analyzes the legal nature of arbitration courts, their place in international and national legal sources, and their effectiveness in resolving contemporary legal disputes from both theoretical and practical perspectives. Additionally, it examines the challenges observed in practice, the legal nature of arbitration courts, and their role in resolving modern disputes, particularly those related to judges. Furthermore, proposals and recommendations are developed to address existing shortcomings.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Keywords: arbitration court, civil procedure, legal nature, court jurisdiction, law, code, modern dispute.

Hakamlik sudlari nizolarni muqobil hal etish usullarining eng qadimgi shakllaridan hisoblanadi va uning vujudga kelishi hamda shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimgi Rim va Yunoniston manbaalarida hakamlik sudyalari va ularning jamiyatda tutgan o'rnini haqida qo'lyozmalar uchraydi. Xususan, Aristotel ham hakamlikni insonlar o'rtasidagi adolatni tiklash, sudni esa qonunni ta'minlash vositasi sifatida ta'riflagan¹. Turli yuridik muassasalar hakamlikni ko'pincha nizolarni murakkab sud jarayonlarisiz, hakamlik sudyasi orqali hal etishning soddalashtirilgan shakli sifatida e'tirof etgan. Ya'ni qadimda davrda odamlar o'zlarining nizolarini hal etish uchun sudlar, qozilar vas hu kabi yuqori lavozimli shaxslarning oldiga borishni emas, aksincha jamiyat hayotida hurmatga sazovor, Yoshi ulug' shaxslar ishtirokida o'z nizolarini xolisona hal etadigan insonga murojaat qilishni Afzal ko'rishgan. Shu orqali hakamlik sudlari jamiyat hayotida shakllangan. Hakamlik atamasiga qadimdan ikki xil ta'rif berilgan bo'lib, uni ikkita ma'noga ega deb hisoblashadi. Birinchidan, nizoni hal qilish usuli yoki usulini belgilash uchun qo'llanilsa, ikkinchidan, nizoni hal qiluvchi va ish bo'yicha qaror qabul qiluvchi organ yoki muassasani aniqlashga xizmat qiladi. Ba'zi mualliflar, shu jumladan P.I. Kudryavtsev, hakamlik iqtisodiy va mehnat nizolarini hal qilishning qonuniy usuli deb hisoblaydi. Ammo olim o'z ishlarida hakamlikni ikki mezonga qarab ajratishni ilgari surgan:

- a) Hakamlik sudi nodavlat organ sifatida nizolashayotgan tomonlarning kelishuvi bo'yicha fuqarolik nizolarini hal qiladi;
- b) Hakamlik sudi ixtisoslashtirilgan davlat sud organi sifatida, uning vakolatiga sud jarayonlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga muvofiq nizolarni hal qilish yo'li bilan tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat sohasida odil sudlovni amalga oshirish kiradi².

¹ Aristotel. Retorika. Unireks, 2008.1,13, 1374b, p.420.

² David, R. (1985). Arbitration in International Trade. Boston: Kluwer Law and Taxation Publishers. 3 Jarroson, Ch. (1987). La notion d'arbitrage [The Notion of Arbitration]. Paris: L.G.D.J. Publ. Kutafin, O.E. (ed.) (2002). Juridicheskij



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Huquqshunoslikda hakamlik sudining huquqiy tabiati bahsli hisoblanadi. Hozirgacha hakamlik sudining huquqiy tabiatini o'rganishda yagona yondashuv mavjud emas, garchi bu masala nazariya va amaliyot uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lsada. Ushbu institutning huquqiy mohiyatini o'rganish uning asosiy elementlarini, huquq tizimidagi o'rnini ochib beradi va davlat sudlari bilan aloqalarni yanada aniqroq qiladi. Hakamlik sudining huquqiy mohiyatini tushunish uchun bir nechta yondashuvlar mavjud. Huquqshunoslikda odatda hakamlik sudining huquqiy tabiatini tahlil qiluvchi to'rt asosiy yondashuv ajratiladi: shartnomaviy, protsessual, aralash va avtonom yondashuvlar.

Bizning fikrimizcha, hakamlik (arbitraj) aralash tabiatga ega bo'lib, unda shartnomaviy hamda protsessual tarkibiy qismlar mavjud. Ya'ni, hakamlik sudining mavjudligi tomonlarning hakamlik bitimida kelishgan irodasiga bog'liq bo'lsa-da, uning faoliyati faqat "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonun bilan emas, balki protsessual huquq normalari asosida tartibga solinishi zarur.

Hakamlik sudlari hozirgi kunda nizolarni muqobil hal etish institutining eng yetakchi usullaridan hisoblanadi va jadal ravishda rivojlanmoqda. Ijtimoiy munosabatlar rivojlangani sari huquqiy nizolar ham murakkablashib, zamon talabiga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Bu o'rinda hakamlik sudlari odatiy sud jarayonlariga nisbatan tezkor, moslashuvchan va kam xarajat talab qiluvchi mexanizm sifatida tadbirkorlik va fuqarolik nizolarini hal qilishda keng qo'llaniladi. Hakamlik sudlari zamonaviy nizolarni hal qilishda bir necha afzalliklarga ega hisoblanadi va nizolarni qisqa muddat ichida kam xarajat asosida adolatli hal etish funksiyasiga ham egadir. Hakamlik sudining zamonaviy nizolarni hal etishdagi ustuvor jihatlari quyidagicha:

1. **Tezkorlik** – davlat sud jarayonlariga nisbatan hakamlik sudlari tomonlardan ko'p muddat, tomonlardan ko'p xarajat talab qilmaydi va vaziyatga professional yondoshgan holda tezroq qaror qabul qiladi.
2. **Maxfiylik** – hakamlik jarayonlari odatda yopiq tarzda o'tkaziladi, bu esa tomonlarning tijorat sirlarini himoya qilishga yordam beradi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

3. **Moslashuvchanlik** – tomonlar hakamlik jarayonining qoidalarini o‘zaro kelishib belgilashlari mumkin. Ya’ni sud jarayoni qoidalar va unda ishtirok etuvchi shaxslar shaxsini, sud jarayoni vaqtini tomonlarning o‘zi belgilash imkoniyatiga ega va bu davlat sudlaridan ancha farq qiluvchi afzalligi hisoblanadi.

4. **Hakamlik qarorlari tan olinishi va xalqaro tan olinishi** – hakamlik qarorlari chiqqanidan so‘ng vakolatli davlat sudlari tomonidan ijro varaqasi berilishi va ijroga qaratilishi uning qarorini tan olinishidir. Shuningdek, ko‘plab davlatlarda tan olinadi va ijro etiladi, aniqro‘gi Nyu-York Konvensiyasiga a’zo davlatlarning barchasida tan olinadi.

Hakamlik sudlarining huquqiy tabiatini tahlil qilishda bir necha huquqiy adabiyotlarga asosan aniq bir to‘xtamga kelish murosasiz, chunki hakamlik sudi moslashuvchan tizim bo‘lganligi sababli aniq bir tabiatni o‘zida aks ettirmaydi. Ammo hakamlik sudi asosan aralash tabiatga ega bo‘lib, unda shartnomaviy hamda protsessual tarkibiy qismlar mavjuddir. Shuningdek zamonaviy nizolarni hal etish tizimida tutgan o‘rnini yanada mustahkamlash va aniq ishlash mexanizmini qonun normalari bilan qat’iy belgilash lozim hamda hakamlik sudylarining maqomi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini o‘zgartirish zarur. Bugungi kunda hakamlik sudlari yetarli darajada himoyaga ega emas, masalan, hakamlik sudlari vakolatli sudlar kabi tegishli qonuniy himoyaga ega emaslar. Ushbu amaliyotda uchrayotgan muammolarni baratarf etish uchun “Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi” qonunga va boshqa normative-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish uchun quyidagi takliflarni keltirib o‘taman:

1. “Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi” qonunning 3-moddasi ya’ni asosiy tushunchalarning qatoriga **“Elektron hakamlik bitimi”** tushunchasini kiritishni taklif qilaman. Ushbu tushunchani quyidagicha sharhlashni taklif etaman. **Elektron hakamlik bitimi** – internet tizimida elektron imzodan foydalangan holda shartnomaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizoni alohida shartnoma yoki shartnomaning tarkibiy qismi bo‘lgan shartnoma sharti tarzida rasmiylashtirilgan nizoni hal etish bo‘yicha kelishuvi. Ushbu tushunchani kiritishga asos sifatida “Elektron hakamlik bitimi” tushunchalari O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan sudlarning reglamentlarida turlicha tahrirda o‘zlariga moslashtirilgan holda kiritilishi natijasida faoliyat yuritib



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

kelayotgan hakamlik sudyalarning o'rtasida turli xil tushunchalar mavjuddir. Shu boisdan ham "O'zbekistonda nizolarni hakamlik sudida hal etish jarayoni: nazariy va amaliy masalalar" mavzusida yuridik fanlar doktorlik (DSc) dissertatsiyasi doirasida o'rganilgan milliy va xorijiy olimlarning fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda ushbu tushunchalarni qonunchilikka qo'shishni taklif qilmoqdaman.

2. Hakamlik sudlarida nizolarni hal etish tizimini ishlash mexanizmi sifatida **Onlayn nizolarni hal qilish (ODR)** usulini joriy qilish va buning uchun maxsus elektron dastur ishlab chiqish lozim. Ishlab chiqilgan dasturda O'zbekiston Respublikasida barcha hakamlik sudyalari haqida ma'lumotlar keltiriladi va tomonlar o'zlari uchun maqul sudyani tanlab, elektron platforma orqali sud konferensiyasini tashkil etishi va shu orqali o'z nizolariga tezkorlik bilan yechim topishiga imkon beradi. Ushbu tizimni afzalligi tomonlar bir-birlaridan chekka hududlarda joylashgan bo'lishiga qaramay yoki sud jarayoni haqida boshqa davlat hududida bo'lsa ham elektron tarzda sud jarayonida ishtirok eta olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Hakamlik sudyalariga nisbatan ta'sir ko'rsatgan shaxslarni, ya'ni hakamlik sudyalariga nisbatan qotillik, sog'liqqa zarar yetkazish, mol-mulkni yo'q qilish yoki shikastlash tahdidi uchun joriy etilgan javobgarlik choralarini kuchaytirishni taklif qilaman. Bunga asos sifatida, tomonlar o'z manfaatiga mos hal qiluvchi qarorni, ajrimni yoki boshqa sud qarorini chiqarishga erishish maqsadida sudyaga turli shaklda noqonuniy ta'sir o'tkazish harakatlari (JK 236-moddasi) **uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi**. Ushbu xatti-harakatlar sudyalarni tashqi va ichki bosimlardan himoya qilish va sudyalarni erkin ravishda qaror qildan holda tashqi ta'sirlardan himoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otaxonov F.X. Nizolarni muqobil hal qilish – Al'ternativnoye razresheniye sporov [Alternative dispute resolution]. Institute of Legislative Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. A collection of articles. 2022, p. 85.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

2. A.Xakberdiyev O‘zbekistonda nizolarni hakamlik sudida hal etish jarayoni: nazariy va amaliy masalalar. Monografiya. Toshkent, TDYU, UDK: 343.14(035.3)(575.1 , 2022.– B.251
3. Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Hammualliflikda. – Toshkent: TDYU, 2024. – 338 bet. Mualliflar: M.M. Mamasiddiqov, yu.f.d. (DSc), professor – I, II, III, IV boblar; A.A. Xakberdiyev, yu.f.d (DSc), dotsent – V, VI, VII, VIII, IX boblar, glossariy, testlar
4. Rubellin-Devichi, J., Vincent, J. 1965. L’arbitrage: Nature juridique. Droit interne et droit international privé [Arbitration: Legal Nature. Domestic Law and Private International Law]. Paris: Librairie générale de droit et de jurisprudence.
5. Aristotel. Retorika. Unireks, 2008.1,13, 1374b, p.420.